

# Zulfiyaxonimning 110-yilligi keng nishonlandi

// 01.03.2025

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/zulfiyaxonimning-110-yilligi-keng-nishonlandi>



1-mart – O‘zbekiston xalq shoiri Zulfiya Isroilova tavallud topgan kun yurtimizda har yili keng nishonlanadi.

Bugun poytaxtimizdagi Adiblar xiyobonida Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi tomonidan shoira tavalludining 110-yilligi munosabati bilan ma‘naviy-ma‘rifiy tadbir tashkil etildi.



Tadbirda davlat organlari va tashkilotlari, keng jamoatchilik vakillari, ijodkorlar, talaba-yoshlar, jumladan, "O'zkimyosanoat" AJ hamda tarmoq korxonalarining xodimalari ishtirok etishdi.



Ma'naviy-ma'rifiy tadbirda Zulfiya ijodining hozirgi kundagi ahamiyati, uning jahon adabiyotida tutgan

o'rni haqida so'z bordi. Ijodkor yoshlar tomonidan she'r va kuy-qo'shiqlar ijro etildi.



"O'zkimyosanoat" AJ jamoasi ham ushbu ma'naviy-ma'rifiy tadbirda faol ishtirok etdi. Zulfiya Isroilova haykali poyiga gulchambarlar qo'yilib, shoira xotirasiga hurmat bajo keltirildi.



**"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati**